2. http:\\www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

3. http:\\www.standart.uz – “Texnik jihatdan tartibga solish” agenligi rasmiy sayti

4. http:\\www.smsiti.uz - Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot institute rasmiy sayti

5. http:\\www.easc.org.by – Межгосударственный Совет по стандартизации, метрологии и сертификации Содружества Независимых Государств.

6. http:\\www.ziyonet.uz – Ta’lim portali

7.http:\\www.window.edu.ru – Butun Rossiya ta’lim portali

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ Z.E. Chorshanbiyev
“____” _____ 2026 yil

Transport va qurilish muhandisligi fakulteti 60711300 - “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati, menejmenti” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun Yakuniy davlat attestatsiya savollari

DASTURI

Qarshi davlat texnika universiteti
Kengashi yig‘ilishining 24.02. 2026 yil
7 -sonli majlisida tasdiqlangan.

Qarshi – 2026

2025/2026-o‘quv yilida transport va qurilish muhandisligi fakulteti 60711300 - “metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati, menejmenti” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun Yakuniy Davlat Attestatsiya savollari belgilangan talablar asosida mazkur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan o‘zlashtirgan fanlarning bo‘limlariga mos ravishda tuzildi.

Tuzuvchilar:

1. **Metrologiya asoslari (NM, AM, QM) fani bo‘yicha:** **S.N.Meyliyev**
2. **“O‘lchash usullari va vositalari” fani bo‘yicha:** **A.T.Turayev**, **S.M.Jovliyev**
3. **“Muvofiqlikni baholash asoslari” fani bo‘yicha:** **Z.B.Turayev**
4. **“Mahsulot sifati nazorati” fani bo‘yicha:** **U.A.Maxmonov**

Ushbu dasturi “Metologiya va materialshunoslik muhandisligi” kafedrasi (Bayoni №11, “09” 02 2026-y.), Transport va qurilish muhandisligi fakulteti Uslubiy komissiyasi (Bayoni №7, “21” 02 2026-y.) va universitet Uslubiy kengashi (Bayoni №4, “26” 02 2026-y.) tomonidan muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

“Transport va qurilish muhanndisligi” fakulteti dekani: **U.I. Qodirov**

“Metrologiya va materialshunoslik muhandisligi” kafedrasi mudiri **O.X.Eshqobilov**

Qarshi davlat texnika universiteti Transport va qurilish muhandisligi 60711300 - “Metrologiya va materialshunoslik muhandisligi” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun Yakuniy davlat attestatsiya savollari

1. “Muvofiqlikni baholash asoslari” fanidan YaDAK savollari

1. O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan?
2. Milliy akkreditatsiya tizimi ishtirokchilari kimlar?
3. Sertifikatlashtirish so'zi qanday ma'noni anglatadi?
5. Sifat menejmenti bu:
6. .... deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni toping.
7. Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sertifikat qancha muddat beriladi?
8. Akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim bu...
9. Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (Internatsional Standards Organization) qaysi yillarida tashkil topgan?
10. ISO prezidenti uning sessiyasida necha yil muddatga saylanadi?
11. ISO ning rasmiy tillari qaysilar?
12. Milliy akkreditatsiya bo‘yicha texnik qo‘mitalar to‘g‘risidagi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?
13. Germaniya Akkreditatsiya Kengashi qachon tashkil etilgan?
14. Baholash guruhi ijobiy hisobot rasmiylashtirgan taqdirda, Akkreditatsiya komissiyasining tegishli qarorini qabul qilish uchun Markazga necha ish kuni mobaynida hisobatni taqdim etadi?
15. Inspektsiya nazorati mahsulotni sertifikatlashtirish organi qancha muddatdan kechikmay o'tkazadi?
16. "Talab" deganda nima tushuniladi?
17. ... sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi, bajaruvchi, sotuvchi, ta’minlovchi yoki iste’molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi
18. Muvofiqlik sertifikati nima?
19. .... deganda, sertifikatlashtirish huquqiga ega bo‘lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon xizmatning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi
20. " Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida " gi qonun qachon qabul qilingan?
21. O‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimiga muvofiq , sertifikatlashtirish - bu ... tomon faoliyatidir.
22. Sertifikatlashtirish sxemalari nechta ?
23. Amaldagi qaysi sertifikatlashtirish sxemalarida mahsulotga muvofiqlik belgisi qo‘yiladi?

24. " Muvofiqlik belgisi" nima?
25. Sertifikatlashtirishda birinchi tomon kim ?
26. Qaysi turdagi mahsulotlar majburiy sertifikatlashtirishtiriladi?
27. Sertifikatlashtirish ob'ektlariga nimalar kiradi?
28. Sertifikatlashtirish sohasida korxona faoliyatini baholash va nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan va akkreditatsiya qilingan shaxs - bu ...
29. Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar.Qaysi xalqaro standartda berilgan?
30. ISO/IEC 17065 xalqaro standarti qanday nomlanadi?
31. Mahsulot namunalarini sinash uchun qancha miqdorda tanlanadi?
32. Sifat bo'yicha ekspert-auditorlar har necha yilda bir marta, belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi
33. Akkreditatlangan sertifikatlashtirish idoralari ustidan inspektsion nazorat o'tkazish davriyligini kim va qachon aniqlaydi?
34. ..... bu belgilangan protsedura asosida mahsulot, prossess yoki xizmatning bir va undan ko'p harakteristikasini aniqlaydigan texnik jara yon.
35 .Akkreditatsiya sikli nima?
36. Gigienik sertifikat qaysi organ tomonidan beriladi.
37. Mahsulotga muvofiqlik belgisi nima sababdan beriladi.
38. Jismoniy va yoki yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan natijalari ashyoviy shaklga ega bo'lgan faoliyat qanday ataladi.
39. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish uchun mahsulot taqdim etgan jismoniy yoki yuridik shaxs bu...
40. Muvofiqlik belgisining shakli, unga doir texnik talablar va tamg'alash tartibi qaysi hujjatda belgilanadi?
41. Sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat bu - .....
42.Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining quyi bo'g'inini nimalar tashkil qiladi?
43. Mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimi va xodimlar qaysi jarayonlarning obektlari bo'lib hisoblanadi?
44. Sinashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki uning tarkibiy bo'linmasi nima deyiladi?
45. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyati qaysi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi?
46. Faoliyatning moddiy - ashyoviy shaklda taqdim etilgan va xo'jalik maqsadida hamda boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan natijasi bu?
47.O'zbekistonda mustaqil Akkreditlash milliy tizimi qachon yaratilgan?
48.O'zbekiston Respublikasi Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya qilish to'g'risidagi yangi qonuni qachon qabul qilingan?
49.Sertifikatlashtirish va sifat bo'yicha qo'mita (CASCO) da qariyib nechta davlat kuzatuvchi mamlakatlar sifatida ishtirok etishadi?
50.Qaysi xalqaro tashkilot akkreditatsiya masalalari bo'yicha qo'mita hisoblanadi?

51.SERTIKO tashkiloti qaysi davlatda YeS standartlashtirish bo'yicha faoliyat ko'rsatadi?
52.Qaysi xalqaro tashkilot sertifikatlashtirish tashkilotini akkreditatsiya qilish bo'yicha ish olib boradi ?
53.Muvofiqlikni baholashga doir ishlar kim tomonidan amalga oshiriladi?
54.Akkreditatsiya belgisining shakli va uni qo'llash tartibi kim tomonidan belgilanadi?
55.Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida qonunini rasmiy e'lon qilingan kundan e'ibordan qancha muddat o'tgach kuchga kirgan?
56.Ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar ko'rsatuvchi manfatlarini ifodalovchi yuridik shaxs kim?
57. Akkreditatsiya belgisini qo'llash uchun to'lov miqdori qonunchilikda belgilanganmi?
58.Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma qancha muddatga beriladi?
59.Baholash guruhi necha ish kuni mobaynida markazga o'tkazilgan inspeksiya nazorati to'g'risida hisobot taqdim etishi kerak?
60.Apelliyatsiyani ko'rib chiqish muddati ariza berilgan sanadan boshlab necha kundan oshmasligi kerak?
61. Apellatsiya komissiyasining tarkibi,baholovchilar,jalb qilinadigan texnik ekspertlar,shu jumladan xalqaro ekspertlar orasidan apellatsiyaga bergan akkreditatsiya obektini baholashda ishtirok etmagan va akkreditatsiya komissiyasi tarkibida bo'lmagan Markazning kamida necha vakili shakllantirilishi kerak?
62.Akkreditatsiya qaysi tildan olingan ?
63.Akkreditatsiyani o'tkazish necha bosqichda amalga oshiriladi?
64.Inspeksiya nazoratini o'tkazish necha bosqichda o'tkaziladi?
65. Akkreditatsiya Markazi hujjatlar to'liq bo'lmagan taqdirda necha ish kuni mobaynida hujjatlarni qaytaradi?
66. Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonun qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan?
67. Muvofiqlikni baholashga oid faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar kimlar?
68. 1.Bugungi kunda dunyoning qancha davlati akkreditatsiya idorasi tashkilotning to'la huquqli a'zolari hisoblanadi?
69. Nomzodlarni attestatsiyadan o'tkazish qanaqa shaklda o'tkaziladi?
70. Akkreditatsiya belgisining shakli va uni qo'llash tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?
71. Muvofiqlikni baholash organlarining javobgarligi Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunning nechanchi moddasida keltirib o'tilgan?
72. Mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash shakli nima deyiladi?
73.Inspeksiya nazorati ishlari davomiyligi (muddati) qancha muddatdan oshmasligi kerak?
74.O'zbekiston Respublikasi qachondan IAF ning to'la huquqli a'zosiga aylandi?
75. ILAC ning yirik mintaqaviy idoralari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

76 .O'zbekiston akkreditatsiya markazi qachon ILAC ning haqiqiy muxbir a'zosi sifatida tan olingan?
77.Xalqaro akkreditatsiya forumi (IAF) dunyoning 88 ta davlatidagi nechta akkreditatsiya idorasini o'z tarkibiga oluvchi yirik xalqaro tashkilot.
78.Muvofiqlikni baholash organlariga qo'yiladigan talablar va ularning majburiyatlari Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunning nechanchi moddasida keltirib o'tilgan?
79. Davriy baholash nima ?
80. Muvofiqlikni baholash ob'ektiga nisbatan qo'yiladigan talablarga roiya etilishini aniqlashga oid faoliyatdan qanday faoliyat?
81."Muvofiqlikni baholash organlarni akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonun necha bob va moddadan iborat?
82.Muvofiqlikni baholash organlarni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunining maqsadi to'gri ko'rsatilgan qatorni ko'rsaring.
83.Inspektsion nazorati necha bosqichdan ibrat?
84. Auditor kim?
85.Belgilangan talablarning bajarilganligini obektiv dalillari keltirish yo'li bilan tasdiqlash nima deyiladi?
86.Aniq maqsadlarga foydalanish yoki qo'llanish uchun mo'ljallangan talablarning bajarilganligi ob'ektiv dalillari keltirish yo'li bilan tasdiqlash usuli nima?
87. Sifat menejment tizimlari bo'yicha o'tadigan audit mezonlari:
88. Sifat menejment tizimlari Birinchi tomon auditi:
89. Sifat menejment tizimlari Auditni obyektlari:
90. Auditni dasturi bўyicha yozuvlarga:
91. Nomuvofiqlik - bu:
92. "Sifat menedjment tizimi " nima:
93. Sifat menedjment tizimini joriy qilishni belgilovchi standartlar - bu:
94. ISO 9001 xalqaro standarti quyidagi hollarda qўllaniladi
95. Korxonadagi amaldagi sifat menedjmenti tizimini rasmiy tan olish - bu :
96. Quyida sanalganlardan qay biri ISO 9001:2015 standartini majburiy talabi hisoblanadi?
97. Menejment tizimida korxona xodimlari auditni qaysi turini ўtkazadi, ammo bunda maslahatchilar ishtirok etishi mumkin?
98. Kuyida sanab ўtilganlardan qaysi biri ISO 9001:2015 talablarini bajarish uchun hujjatli rasmiylashtirishni talab qiladi:
99. Tashkilotning sifat menedjmenti tizimini ishlab chikish va joriy etishga quyidagilardan qay biri ta'sir qiladi:
100. ISO 9001 da «maxsulot» atamasi kuyidagilarni qaysi biri uchun qўllaniladi:
101. «Hujjatlashtirilgan protsedura" – bu:
102. Tashkilot SMT hujjatlarini:
103. Sifat menejment tizimida rahbariyat tomonidan tahlil qilish natijalari:
104. Infratuzilma nima uchun zarur:
105. «Sertifikatlashtirish milliy tizimi» tushunchasiga aniqlik keltiring:
106. «Talab» daganda nima tushuniladi?



107. Akkreditatsiya nima? Bu jarayon, biror bir nufuzli idora yordamida rasmiy tan olingan:
108. Akkreditlangan laboratoriya uchun kim subpudratchi bo'lishi mumkin?
109. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari ustidan inspeksion nazorat o'tkazish davriyligini kim va qachon aniqlaydi?
110. Amaldagi qaysi sertifikatlashtirish sxemalarida mahsulot muvofiqlik belgisi qo'yiladi?
111. Audit tamoyili nechta?
112. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi nima?
113. ISO 9001 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikati quyidagilarga xizmat qiladi
114. Ichki audit laboratoriya davriy va rejaga muvofiq o'z faoliyatida nima uchun o'tkaziladi?
115. Ishlab chiqarishda boshqariladigan sharoitlariga zarur bo'lganda quyidagilar kirishi kerak:
116. Qanday laboratoriyalar sertifikatsion sinovlarni o'tkazish va uning natijasi bo'yicha bayonnoma berish xuquqiga ega?
117. Qanday maqsadlarda ichki audit o'tkaziladi?
118. Qanday maqsadlarda sinov laboratoriyasida ariza tahlili o'tkaziladi?
119. Qanday xolatda sinov bayonnomasi berilganidan so'ng unga o'zgartirish kiritiladi?
120. Qanday hujjatlar sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati huquqini beradi?
121. Quyida sanab o'tilgan usullardan qaysi biri iste'molchilarni qanoatlanganligini kuzatish borish uchun tashkilot tomonidan qo'llanilishi kerak:
122. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini bajarilish yuzasidan tekshirishni kim amalga oshiradi?
123. Majburiy sertifikatlashtirishda mahsulotning qanday ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lishi lozim?
124. Maxsulot va xizmatlar muvofiklik sertifikatiga qancha muddat berilishi mumkin?
125. Mahsulot muvofiqlik belgisida nima haqidagi guvohlik keltirilgan?
126. Mahsulot namunalarini (proba sinash) sinash uchun qancha miqdorda tanlanadi?

127. Mahsulotni sertifikatlashtirish deganda nima tushuniladi?
128. MDH mamlakatlaridan import qilinayotgan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni dalillaridan kelib chiqib, uni kim tan oladi?
129. Meyoriy hujjatlarning qanday ko'rsatkichlar majburiy talablarga tegishli bo'ladi?
130. Muvofiqlikni tasdiqlash deganda nimani tushuniladi?
131. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazoratni o'tkazish huquqi kimga berilgan?
132. Sertifikatlashtirish idorasi faoliyatini inspeksion nazorati natijalari salbiy bo'lgan holda akkreditlash idorasi quyidagi qarorni qabul qilishi mumkin:

133. Sertifikatlashtirish idorasida faoliyatida akkreditlangan laboratoriya zarurmi yoki majburiymi, yetishmaydimi yo uni attestatlash kerakmi?
134. Sertifikatlashtirish murojaatchisi (arizachi) tanlangan mahsulot namunasini sinashda qatnashish huquqi bormi?
135. Sertifikatlashtirish tizimi tarkibiga kiradi:
136.Sertifikatlashtirishda rasmiylashtirilgan hujjatlar qancha muddatda saqlanadi?


137. Sertifikatlashtirishda sinovlar o'tkazish tomonlarning sinov laboratoriyalari (markazi)da ruxsat etiladimi?
138. Uchinchi tomon auditi bu:
139. Gigiyenik sertifikatni kim beradi?
140. O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimiga muvofiq, sertifikatlashtirish – bu ..... tomon faoliyatidir
141. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishda sinov dasturi kim tomonidan aniklanadi?
142. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida Sertifikatlashtirish sohasidagi asos soluvchi hujjat
143. Uzbekiston Milliy Sertifikatlashtirish tizimida maxsulotning sertifikatlashtirish ishlarini kim utkazadi?
144. Majburiy sertifikatlashtirishda sinov dasturi kim tomonidan aniqlanadi?
145. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash obyektlari:
146. Sinov laboratoriyalariga taqdim etilgan talablar:
147. Sertifikatlashtirishga ariza sertifikatlashtirishning bosqichi sifatida quyidagini qamrab oladi:
148. Muvofiqlikni baholash sertifikatlashtirishni bosqichi sifatida quyidagini qamrab oladi
149. Sertifikatlashtirish maqsadida sinash o'tkaziladi....
150. Sertifikatlashtirilgan maxsulot ustidan inspeksiya nazoratini kim amalga oshiradi?
151. Maxsulot va xizmatlar meyoriy xujjatlarning talablariga to'liq muvofiqligi qaysi xujjat bilan tasdiqlanadi?
152. Muvofiklik sertifikati bu:
153.Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifasi nima?
154. Standartlashtirishning asosiy obyekti nima?
155. Muvofiqlik sertifikati kim tomonidan beriladi?
156. Texnik reglamentlar nimani belgilaydi?
157.Muvofiqlikni baholash jarayonida sinov qayerda o'tkaziladi?
158. Standart nima uchun kerak?
159. ISO tashkilotining asosiy vazifasi nima?
160. Mahsulot sifati nimaga bog'liq?
161. Muvofiqlikni baholash jarayoni nechta asosiy bosqichdan iborat?
162. Standartlashtirish tizimi nimani ta'minlaydi?
163. Sinov protokoli nima?
164. Muvofiqlik belgisi qayerda qo'llaniladi?
165. Akkreditatsiya nima uchun kerak?
166. Muvofiqlikni baholash tizimi nimaga xizmat qiladi?
167. Texnik reglamentlar qanday hujjat hisoblanadi?
168.Mahsulot xavfsizligi nimani anglatadi?
169. Standartlashtirish nimani tartibga soladi?
170. Muvofiqlikni baholash tizimi qaysi sohalarda qo'llaniladi?
171. Sinov laboratoriyasining asosiy vazifasi nima?
172. Sertifikatlashning asosiy maqsadi nima?
173.Muvofiqlikni baholash tizimi qaysi sohalarda qo'llaniladi?
174. Standartlashtirishning asosiy tamoyillaridan biri qaysi?
175. Sertifikatlash jarayonida qanday hujjat beriladi?
176. Muvofiqlikni baholash obyekti qaysi bo'lishi mumkin?
177.Texnik reglamentlar nimani ta'minlaydi?
178. Akkreditatsiya qaysi tashkilotlarga beriladi?
179. Muvofiqlikni baholashning xalqaro tashkiloti qaysi?
180. Mahsulot sifati nimaga asoslanadi?
181. Sinov laboratoriyasining asosiy vazifasi nima?
182. Standartlar qanday bo'lishi mumkin?
183. Muvofiqlikni baholash jarayonida ekspert kim?
184. Muvofiqlikni baholash tizimi nimaga xizmat qiladi?
185. ISO standartlari qaysi darajada qo'llaniladi?
186. Standartlashtirish tizimi nimani ta'minlaydi?
187. Mahsulot xavfsizligini kim nazorat qiladi?
188. Muvofiqlik belgisi nimani ko'rsatadi?
189. Standartlashtirishning iqtisodiy ahamiyati nimada?
190. Muvofiqlikni baholash jarayonida inspeksiya nima?
191. Akkreditatsiya sertifikati nimani bildiradi?
192. Mahsulotni sertifikatlashning asosiy maqsadi nima?
193. Muvofiqlikni baholashning asosiy tamoyillaridan biri qaysi?
194. Akkreditatsiya jarayonini kim amalga oshiradi?
195. Texnik reglamentlar qanday hujjat hisoblanadi?
196. Muvofiqlikni baholash jarayonida sinov nima uchun o'tkaziladi?
197.Muvofiqlikni baholash jarayonining asosiy bosqichi qaysi?
198. Mahsulotni sertifikatlash natijasida nima beriladi?
199. Sinov protokoli nima?
200.Muvofiqlikni baholash tizimining asosiy vazifasi nima?

"Mahsulot sifati nazorat" fanidan YaDAK savollari


1. GOST 15467-79 ga muvofiq: *sifat nazorati ...*
2. *Ishlab chiqarish nazorati* jarayonlar va mahsulotlar uchun belgilangan (belgilangan) talablarning bajarilishini tasdiqlaydi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: ....
3. Mahsulot nima?
4. Mahsulot sifatiga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating
5. Mahsulot sifati ishlab chiqarishning texnik darajasiga bog'liqmi?
6. Mahsulot sifatini o'zgarmas deb hisoblash mumkinmi?
7. Mahsulotning bir yoki bir necha xossa xususiyatlarining miqdoriy tavsifi nima deb ataladi?
8. Barcha mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari ifodalanishi bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?
9. Mahsulot sifatini iqtisodiy jihatdan baholaydigan ko'rsatkich – bu ...
10. Sifat ko'rsatkichlari tavsiflovchi xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
11. Sifat ko'rsatkichlari ifodalanish usuliga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
12. Sifat darajasini baholashga ko'ra sifat ko'rsatkichlari turlarga ajraladi?
13. Sifat ko'rsatkichlari bosqichlariga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
14. Mahsulot vazifalari bo'yicha ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
15. Mahsulotning ishonchliligi ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
16. Mahsulotning ergonomik ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
17. Mahsulotning estetik ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
18. Moda yo'nalishlari o'zgarishi, mavsum o'zgarishi yoki yangi sifatli mahsulotning yaratilishi nimaga olib keladi?
19. Uzoqqa chidamlilik ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?
20. Saqlanuvchanlik ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?
21. Mahsulotning badiiy ifodalanishini, shaklning to'g'riligini, kompozitsiyaning butunligini tavsiflovchi murakkab xossa qanday nomlanadi?
22. Mahsulotlarning murakkab xossasini tavsiflovchi, uning ehtiyojini, maqsadini va topshiriqga binoan berilgan vazifalarni bajarishi qanday nomlanadi?
23. *Sanoat mahsulotlari* deganda, ...
24. Sanoat mahsulotlari umumiy tarzda nechta sinfga bo'linadi?
25. Quyidagi javoblar ichidan ta'mirlanmaydigan buyumlar guruhini ko'rsating
26. Mahsulotning o'zi bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni aniqlovchi mahsulot xossalarini tavsiflaydi va qo'llanish sohasini belgilaydigan ko'rsatkichlar qanday ataladi?
27. "Inson – buyum" (jumladan, "inson – mashina") tizimini tavsiflaydigan va inson hayotida sodir bo'ladigan gigiyenik, antropometrik, fiziologik va psixologik xususiyatlar majmuini hisobga oladigan ko'rsatkich qanday nomlanadi?
28. Shovqin darajasi, yorug'lik darajasi, harorat darajasi, mahsulot konstruksiyasining insonning tezlik imkoniyatlariga muvofiqligi, mahsulot konstrukdiyasining insonning kuch imkoniyatlariga muvofiqligi va boshqalar qaysi ko'rsatkichlar guruhiga kiradi?
29. Asl nusxaligi, uslubiy muvofiqligi, modaga muvofiqligi, vazifasi-konstruksiyasi jihatdan moslanganligi, hajmiy-fazoviy tuzilmaning tartibliligi, ranglar uyg'unligi, sirtning puxta qoplanganligi va bezatilganligi, firma belgilari, ko'rsatkichlari, o'ramlari va boshqalar qaysi ko'rsatkichlar guruhiga kiradi?
30. Mahsulotning ochiq joyda ko'chishga (tashishga), ya'ni mahsulotdan foydalanish (iste'mol qilish) bilan bog'liq bo'lmagan harakatlarga moslanganligini tavsiflaydigan ko'rsatkichlari qanday nomlanadi?
31. Quyidagi rasmda markaziy doira ichida qanday so'z bo'lishi kerak?
32. 
33. Mahsulot sifatini boshqarishda moddiy-texnik va axborot vositalari yordamida o'zaro munosabatda bo'luvchi boshqaruv idoralari va obyektlari majmuasi qanday nomlanadi?
34. Korxona sharoitida aylanma siklda amalga oshuvchi "rejalashtirish-amalga oshirish-nazorat-boshqaruv" jarayonlarining yig'indisi nima deb ataladi?
35. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?
36. 
37. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?
38. 
39. Mahsulot sifatining operatsion tekshiruvi qachon amalga oshiriladi?
40. Daromad tekshiruvi qachon amalga oshiriladi?
41. Qabul tekshiruvi qachon amalga oshiriladi?
42. Mahsulotlar sifatini tekshirishning qanday turlari mavjud?

43. Sanoat korxonalarida sifatni barqarorligini ta'minlash maqsadida qanday tekshiruv amalga oshirilib turadi?
44. Mahsulotlardagi nuqsonlar namoyon bo'lishiga qarab qanday turlarga ajraladi?
45. ... - mahsulot sifatining qo'yiladigan texnik talablarga, uni ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitlari va sifatni ta'minlashda talab qilinadigan omillarga muvofiqligini tekshirish.
46. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini nazorat qilish yuzasidan bajariladigan xizmatlar majmui qanday nomlanadi?
47. Nazorat usullarini ishlab chiqish, brakni hisobga olish va tahlil qilish kimning vazifasi hisoblanadi?
48. Texnik nazorat qamrab olish darajasiga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
49. Nazorat parametrlariga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
50. Nazoratning xususiyatlariga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
51. Bajarilish vaqtiga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
52. Ijrochilarga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
53. Qo'llaniladigan nazorat vositalariga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
54. Ishlab chiqarish jarayonining bosqichlariga ko'ra texnik nazorat qanday turlarga ajraladi?
55. Iste'molchilarning taklif va mulohazalaridan kelib chiqqan holda mahsulotning sifat ko'rsatkichi baholanadigan uslubni ko'rsating.
56. Materiallarining xossalarini o'lchash yo'li bilan (instrumental uslub) yoki nuqsonlarning sonini hisoblash va sanash yo'li bilan sifat ko'rsatkichi baholanadigan uslubni ko'rsating.
57. Inson tanasining hislari va sezgirligiga asoslangan mahsulot sifat ko'rsatkichlari baholanadigan uslubni ko'rsating.
58. Meva-sabzovatlarning sifat ko'rsatkichlarini umumiy tarzda qanday guruhlarga ajratish mumkin?
59. Meva-sabzovatlarning tashqi sifat ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
60. Meva-sabzovatlarning ichki sifat ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
61. Meva-savzovat mahsulotlarining tarkibidagi saxaroza miqdorini, qattiq moddalarning miqdorini aniqlashda qaysi o'lchash asbobidan foydalaniladi?
62. Meva-savzovat mahsulotlarining qattiqlik darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan asbob nomini ko'rsating.
63. Qo'llaniladigan usullardan qat'iy nazar, sifat nazorati, birinchi navbatda, ... o'z ichiga oladi. *Nuqtalar o'rniga mos jumlani toping.*
64. Qabul qilinuvchi qarorlarga ko'rsa mahsulot sifatini nazorat qilish qanday turlarga bo'linadi?
65. Ishlab chiqarishning istalgan bosqichida sifatga tahdid aniqlangan va qayd etilgan yoki buzilish xavfi mavjud bo'lgan sharoitlarda qandfay nazoratni amalga oshirish mumkin?
66. Korxonada sifat nazorati bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilot nima deb ataladi?
67. Mahsulot sifatini ... deganda, mahsulot sifatini, parametrlarini, xususiyatlarini va ekspluatatsion xususiyatlarini o'zgartirmaydigan (buzuvchi usullardan farqli o'laroq) bilvosita belgilar orqali nazorat qilish tushuniladi.
68. Mahsulotning sifatiga ta'sir etuvchi, yashirin ko'rinishdagi (chuqur joylashgan) turli havo bo'shliqlari, ko'p qatlamli mahsulotlarda qatlamlarning og'ishi kabi nuqsonlarni aniqlashda qaysu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq?
69. Quyidagilardan qaysi biri putur yetkazmasdan nazorat qilish usullariga kirmaydi?
70. Korxonada putur yetkazmasdan nazorat qilish tizimi qanday asosda joriy etiladi?
71. Putur yetkazmasdan nazorat qilish laborotoriyalarining akkreditatsiyalanish davriyligi qanday belgilangan?
72. Obyektlarning putur yetkazmasdan nazorat qilishni bajarish huquqini berish uchun xorijiy mamlakat idorasi tomonidan akkreditlangan putur yetkazmasdan nazorat qilish laboratoriyalari kim tomonidan ro'yxatga olingan bo'lishi kerak?
73. Mahsulot qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
74. Mashinani boshqarishning qulayligi va xavfsiz boshqarish mumkinligi qaysi texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhiga kiradi?
75. Mashinaning universalligi qaysi texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhiga kiradi?
76. Buzilmasdan ishlashi, ko'p yeyilmasdan ishlashi, ta'mirlashning osonligi kabi ko'rsatkichlar qaysi texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhiga kiradi?
77. Antroponometrik ko'rsatkichlar mahsulot konstruksiyasi undan foydalanilayotgan vaqtda nimalarga mos kelishini ko'rsatadi?
78. Iste'molning xavfsizligi ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?
79. Tayyor mahsulot o'zining iste'moldagi bahosi va boshqalariga hamda uning iste'mol yoki ishlatilishdagi harajatlarning yig'indisi nima deb ataladi?
80. Meva-savzovat mahsulotlarining qattiqlik darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan asbob nima deb ataladi?
81. Meva-savzovat mahsulotlarining tarkibidagi saxaroza miqdorini, qattiq moddalarning miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan maxsus o'lchash asbobi nima deb ataladi?
82. Kornell jadvali (Cornell Chart) dan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
83. *O'rtacha namuna* deb nimaga aytiladi?
84. Laboratoriya namunasi deb nimaga aytiladi?
85. Og'irligi 400 g dan kam mahsulotlarning namunasi qanday tarzda olinadi?
86. Og'irligi 400 g dan yuqori bo'lgan mahsulotlarning namunasi qanday tarzda olinadi?
87. Dumaloq shakldagi mahsulotlardan namuna qanday tarzda olinadi?
88. Mahsulot kvadrat yoki to'g'ri burchak shaklida bo'lsa, undan namuna qanday tarzda olinadi?
89. Mahsulotlardan olingan namunalar qanday idishlarga joylanadi?

90. Agar mahsulot sifatini nazorati jarayonida nomuvofiqliklar aniqlansa, keyingi ishlab chiqarish to‘xtatilishi kerakmi? Siz nima deb o‘ylaysiz?
91. Rejadan tashqari (favqulodda) nazorat qachon va qanday holatlarda amalga oshiriladi?
92. Korxonada sifat nazorati bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilot qanday nomlanadi?
93. Mahsulot sifatini, parametrlarini, xususiyatlarini va ekspluatatsion xususiyatlarini o‘zgartirmaydigan bilvosita belgilar orqali nazorat qilish usullari qanday nomlanadi?
94. Quyidagi javoblardan qaysi mahsulotlarni putur yetkazmasdan nazorat qilish usullarining kamchiligiga kiradi?
95. Kiruvchi materiallarning har bir partiyasi kiruvchi nazoratdan o‘tkazilishi kerakmi?
96. Putur yetkazmasdan nazorat qilish laborotoriyalari qanday hollarda majburiy akkreditlanishi kerak?
97. Putur yetkazmasdan nazorat qilish laborotoriyalarining akkreditlanish davriyligi qaysi javobda to‘g’ri ko‘rsatilgan?
98. Obyektlarning putur yetkazmasdan nazorat qilishni bajarish huquqlarini berish uchun laborotoriyani akkreditlash kim tomonidan belgilangan tartibda o‘tkaziladi?
99. Putur yetkazmasdan nazorat qilish bo‘yicha xulosa qanday tarzda tasdiqlanadi?
100. Tekshirish (sinash) natijalari kim tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak?
101. Mahsulotlarni putur yetkazmasdan nazorat qilishni tashkil etish qaysi me’yoriy hujjatga asosan amalga oshiriladi?
102. Mahsulotlarni putur yetkazmasdan nazorat qilish laboratoriyalariga talablar qaysi me’yoriy hujjatga muvofiq belgilanadi?
103. Magnitli nazorat usullari qanday hodisaga asoslangan?
104. Magnit-kukunli usul qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
105. Quyidagi rasmda qanday jarayon tasvirlangan?



106.
107. Magnit kukunkli usulning sezgirligi nimalarga bog‘liq tarzda farq qilishi mumkin?
108. Quyidagi rasm putur yetkazmasdan nazorat qilishning qaysi usulini ifodalaydi?



109. Magnit singdiruvchanlik miqdori μ>1 bo‘lgan moddalar qanday nomlanadi?
110. Magnit singdiruvchanlik miqdori μ>>1 bo‘lgan moddalar qanday nomlanadi?
111. Magnit singdiruvchanlik miqdori μ<1 bo‘lgan moddalar qanday nomlanadi?
112. Magnit-kukunli usulda asosan qanday nuqsonlar aniqlanadi?
113. Ultrabinafsha yoritilishida ... ishlatilishi nuqsonlarni aniq ko‘rinishiga va nazorat unumdorligini oshishiga olib keladi. *Qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘ying.*
114. Elektromagnit nazorat qilish usuli ... tayyorlangan jismlarni nazorat qilish uchun ishlatiladi.
115. Uyurmaviy tokli nazorat usulida o‘zzgartkich sifatida nima qo‘llaniladi?
116. Radioto‘lqinli nazorat usulu qaysi turida nazorat ob'ekti radio to'lqinli nurlanish manbasiga ta'sir qiladi?

117. Radioto‘lqinli nazorat usulu qaysi turida radioto‘lqin nurlanishning manbai nazorat obyektining o‘zi hisoblanadi?
118. Radiatsion usuli - bu ... sinov usuli bo‘lib, u obyektga ... bilan ta’sir qilish, so‘ngra uning oqibatlarini tahlil qilish va qayd etishdan iborat.
119. Qaysi nazorat usuli yordamida ishlab chiqarish, yig‘ish, ishlatish va ta’mirlash jarayonida vizual tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan nazorat obyektlarining ichki konfiguratsiyasi va nisbiy holatini aniqlash mumkin?
120. Qaysi nazorat usuli rentgen nurlarining metalldan o‘tish qobiliyatiga asoslangan?
121. “Nazorat qilishning bu usuli nazorat qilinayotgan obyektlarni rentgen nurlari bilan yoritib ko‘rishga, obyektning radiatsion tasvirini yorug‘lik, soya yoki elektron tasvirga almashtirishga va bu tasvirni optika yoki televizion texnika yordamida masofaga uzatish hamda uni chiqish ekranlarida ko‘rib tahlil qilishga asoslangan.” Ushbu ta’rif qaysi nazorat usuliga tegishli?
122. Akustik nazorat qilish usullari qanday guruhlarga bo‘linadi?
123. Akustik nazoratning ... usulida nazorat qilinayotgan obyektga tovush manbalaridan akustik to‘lqinlar yuboriladi va ular obyekt bilan o‘zaro ta’sirlashgandan so‘ng qabul qiluvchi qurilma yordamida qabul qilinib nazorat o‘tkaziladi.

124. Akustik nazoratning ... usulida nazorat qilinuvchi obyektni o'zi tovush manbai bo'lib, faqat undan tarqalayotgan akustik to'lqinlar qabul qilinib, nazorat o'tkazildi.
125. Akustik nazorat usullarining qaysi biri nazorat obyektidan akustik to'lqinlarni o'tishi, hamda ularni nuqsonlar bilan to'qnashishi natijasida to'lqin amplitudasi kamayishiga asoslangan?
126. Akustik nazorat usullarining qaysi biri nazorat obyektidan akustik to'lqinlarni o'tishi hamda nuqsonlar bilan o'zaro ta'sirlanishi natijasida ultratovushni o'tish vaqtini ortishi yoki kamayshiga asoslangandir?
127. "... ham qaytish usulining bir turi bo'lib, tekshirilayotgan obyektning eng pastki qatlami va nuqsondan ko'zguli qaytgan signallarning tahlil qilishga asoslangan". Ushbu ta'rifda qoldirilgan so'zlarni toping.
128. Tadqiqot qilish sinovlarining maqsadi nimalardan iborat?
129. Solishtirish sinovlarining maqsadi nimalardan iborat?
130. Nazorat sinovlari qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
131. Malakvaiy sinovning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
132. Dastlabki sinovning maqsadi nimalardan iborat?
133. Me'yoriy texnik hujjatda belgilangan hajm va vaqtda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni nazorat sinovi, bunda mahsulot sifatining turg'unligi va uni ishlab chiqarish mumkinligi tekshiriladigan turi qaysi?
134. Obyekt xususiyati xarakteristika qiymatini belgilangan qiymatdan chiqarib yuboruvchi yoki uni buzib yuboruvchi ta'sirning qiymatini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinov.
135. Attestatsion sinov – ...
136. Chidamlilik sinovi – ...
137. Tezlashtirilgan sinovlar – bu ...
138. Me'yoriy texnik hujjatda belgilangan hajm va vaqtda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni nazorat sinovi, bunda mahsulot sifatining turg'unligi va uni ishlab chiqarish mumkinligi tekshiriladi. Ushbu ta'rif qaysi sinov usuliga tegishli?
139. Mustahkamligini aniqlash uchun qo'shimcha ravishda sinovlar o'tkaziladimi?
140. Sinov usullari olinadigan ma'lumot bo'yicha qanday turlarga ajraladi?
141. Sinov usullari ta'sir qilish xili bo'yicha qanday turlarga ajraladi?
142. Mahsulot sifatini statistik nazorat qilishda qo'llaniladigan gistogrammani qurishda olingan ma'lumotlar miqdori 40-100 gacha bo'lsa, sinflar soni qanday tanlab olinadi?
143. Mahsulot sifatini statistik nazorat qilishda qo'llaniladigan gistogrammani qurishda agar olingan ma'lumotlar miqdori 100-500 gacha bo'lsa, sinflar soni qanday tanlab olinadi?

144. Isikava sxemasida sifatga ta'sir etuvchi sabablar sifatida quyidagilar olingan
145. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?



146.
147. Davriy sinovlar ...
148. Ushbu sinovlar mahsulotni sertifikatlash doirasida o'tkaziladi. Tekshirish sinovlarining maqsadi mahsulot sifatining barqarorligini nazorat qilishdir. *Ushbu fikrlar qaysi sinov turiga talluqli?*
149. ... mahsulotning o'z funktsiyalarini bajarish qobiliyatini tekshirish va unga ma'lum omillar ta'siri qilganda parametr qiymatlarini belgilangan me'yorlar doirasida saqlash xusnsiyatini aniqlashga qaratilgandir.
150. Qaysi turdagi sinovlar sinovdan o'tgan obyektning turli xil xususiyatlarini, lekin birinchi navbatda, iste'molchilarning salomatligi va hayotini saqlash uchun qonunda belgilangan talablarni o'z ichiga oladi?
151. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida metrologiya xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 528-son qarori qachon qabul qilingan?
152. Sinov bayonnomasi tuzilgandan keyin unga tuzatishlar yoki qo'shimchalar kiritish qanday tartibda rasmiylashtiriladi?
153. Sinov natijalari qabul qilish va topshirish sinovlari bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
154. Sinov uskunalari qo'llanilish doirasiga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
155. Sinov uskunalari foydalanish davomiyligiga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
156. Sinov uskunalari o'rnatilish usliga ko'ra qanday turlarga ajraladi?

157. Ma'lum sinov vositalarini va prinsiplarini qo'llash qoidasi nima deb ataladi?
158. Sinovlarga qo'yiladigan umumiy talab nimadan iborat?
159. Qaysi sinov turlarida namuna sinov vaqti davomida uzluksiz turg'un kuchlanish ostida bo'ladi va sinov namuna sinov uchun yaroqsiz holga kelguncha davom etadi?
160. Ishlab chiqiladigan sinov dasturlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:...
161. Mahsulot turiga va sinov hajmi to'g'risidagi dasturga bog'liq ravishda bir dona mahsulot sinalishi mumkinmi?
162. Mahsulot turiga va sinov hajmi to'g'risidagi dasturga bog'liq ravishda mahsulot partiyasi to'liqligicha sinalishi mumkinmi?
163. Ixtiyoriy sertifikatlash jarayonida foydalaniladigan o'lchash vositalarining nusxalari sertifikatlashtirishdan va kalibrlashdan o'tkazlishi lozim deb hisoblaysizmi?

164. Quyidagi rasmdan har bir atamaga mos ta'rifning mosligini aniqlang

165. Sinov natijalari to'g'risida hisobot berishning asosiy talablari qaysi MHda ko'rsatilgan?

166. Sinov bayonnomasini kim tuzadi?

167. Metrologik attestatsiya natijasida modda (material)ning xossasi yoki tarkibini tavsiflaydigan bitta yoki undan ortiq qiymatlari aniqlangan shu modda (material) namunasi shaklidagi o'lchash vositasi qanday nomlanadi?

168. O'lchash vositasi va (yoki) texnik hujjatga bosilgan, o'lchash texnikasi vositalarini qiyoslash qoniqarli natijalar bilan o'tkazilganligini tasdiqlaydigan, shuningdek, o'lchash vositalarini, shu jumladan, rostlovchi qurilmalarni har qanday ruxsat berilmagan kirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan belgi nima deyiladi?

169. Belgilangan shakl va mazmundagi o'yma belgilar maydoniga ega bo'lgan, o'lchash vositasiga va (yoki) ularning foydalanish hujjatlariga izi bosib tushiriladigan va ularni qiyoslashdan o'tkazilganligini va qo'llanish uchun yaroqliligini tasdiqlovchi texnik qurilma qanday nomlanadi?


170. Quyidagi rasmdan har bir atamaga mos ta'rifning mosligini aniqlang

Davomiy tekshiruv – ...	har bir bosqichdan keyin tekshiriladi.
Qabul tekshiruvi – ...	ishlab chiqarishni oxirida bajariladi. Sifatni boshqarish bo'limi tasarrufi bosilishi mahsulotni sifatliligini bildiradi.
Operatsion tekshiruv – ...	sanoat korxonalariga kelgan xom-ashyolarni va sotdoga kelgan mahsulotlarni sifati bo'yicha qabul qilish jarayoniga aytiladi.

171.

172. Elektr lampalarini har biri nominal darajadan 15% oshiqroq kuchlanishdagi elektr tokka 10 sekund bardosh bera olishi sinab ko'rilishi kerak. Shunda 15-200 Vt li lampalar ichida kuygani 1,5 % dan oshmasligi kerak. Aks holda dalolatnoma tuzib ishlab chiqarishga qaytarilib yuboriladi. Agar sinovdan o'tkazilgan lampalarning umumiy soni 178 tani, sinov paytida kuyganlari soni 4 donani tashkil etsa, siz qanday xulosa chiqargan va yo'l tutgan bo'lar edingiz?

173. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?




174.

175. Quyidagi rasmda magnitkukunli usulda mahsulot sifatini nazorat qilish jarayoni tasvirlangan. Rasmdan mahsulotda kuzatilayotgan nuqson toping, u qaysi raqam bilan ko'rsatilgan?



176.

177. Quyidagi rasmda magnitkukunli usulda mahsulot sifatini nazorat qilish jarayoni tasvirlangan. Rasmda 5 raqami orqali nima ko'rsatilgan?



178.

179. Statistik nazoratning ilmiy usullari qachon kiritilgan?

180. Statistik nazoratning ilmiy usullari kim tomonidan taqdim etilgan?

181. Edvard Deming nima bilan shug'ullangan?

182. Shuxart xaritasi nima?

183. Aniq chegaralarda tasdiqlangan funksional parametrlarni qiymatlarini saqlash Mahsulotlarini xususiyatlari qanday nomlanadi ?

184. Mahsulotning chidamliligi nima?

185. Standart qiymatlar nima?

186. Nazorat xaritalarining maqsadi nima?

187. Miqdoriy ma`lumotlar uchun nazorat kartalarining qollanilishi qanday afzalliklarga ega?

188. Shuxart kartasi kriteriyasi qanday nomlanadi?

189. Sifatni boshqarish - ...

190. Mahsulot sifati – ....

191. Mahsulot sifatining darajasi – ....

192. Eskirish nima?

193. Vazifa ko'rsatkichlari – ....

194. Ergonomik ko'rsatkichlar bu- ....

195. Qaysi hujjatda sinov (o'lchov) laboratoriyasiga qo'yilgan talablar o'rnatilgan?

196. Kim o'tkazilgan akkreditasiya natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi

197. Sertifikatlashtirish jarayonida mahsulotni sinovini o'tkazish majburiy talabmi yoki yo'qmi

198. Me`yoriy hujjatlarning qaysi ko'rsatkichlari majburiy talablarga tegishli bo'ladi?

199. Nomuvofiqlik - bu:

200. Qaysi javobda degustatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

201. Oziq-ovqat mahsulotlari, parfyumeriya, tamaki va boshqa mahsulotlarning xususiyatlarini organoleptik usulda aniqlaydigan mutaxassis qanday nomlanadi?

